

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR TAHLILI

Xaydarov Alisher Akram o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

[xaydarovalisher10@gmail.com](mailto:xaydarovalisher10@gmail.com)

+998994133523

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida 2017-2025-yillarda kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan davlat siyosati ustuvor yo'nalishlari, amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijalarini tahlil qilish maqsad qilingan. Maqolada dastlab bugungi kunga qadar ushbu og'riqli muammoni bartaraf etish yuzasidan barcha yo'nalishlarda qilingan sa'y-harakatlar yillar kesimida atroflicha muhokama qilinadi. So'ngra respublikamizda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha islohotlar natijasidan olingan xulosalar o'laroq, "qo'l boshqaruvi" dan tizimli boshqaruvga o'tish zaruriyati hamda kambag'allikka qarshi kurashishda fiskal vositalardan foydalanish muhim ekanligi yuzasidan muallifning shaxsiy fikr-mulohazalari keltirib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** kambag'allikni qisqartirish, fiskal instrumentlar, iste'mol savatchasi.

### I. KIRISH

Bugungi kunda yurtimizda kambag'allikni qisqartirish allaqachon umummilliy harakatga aylanib ulgurdi. O'tgan yillar davomida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha to'plangan tajriba va odamlarning ehtiyojidan xulosa qilib, kambag'allikni qisqartirishni yangi bosqichga olib chiqqan holda ehtiyojmand insonlarning xohishi va imkoniyatini qo'llab-quvvatlab, hayotga, jamiyatga olib kirish zarurligi hukumatdan tortib, tuman tashkilotigacha barcha bo'g'indagi rahbarlarning kundalik ishi bo'lishi kerakligi davlat rahbari tomonidan qat'iy qoida sifatida belgilab berildi.

Kambag'allikni qisqartirish masalasiga davlat va jamiyat o'rtasidagi "ijtimoiy shartnoma" hisoblanmish yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham bir necha marta to'xtalib o'tildi. Xususan, unga davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'rishi bo'yicha alohida norma kiritildi<sup>42</sup>.

Yangi O'zbekistonni "ijtimoiy davlat" tamoyili asosida qurishni maqsad qilinganligi Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yildi<sup>43</sup>. Prezidentimiz tabiri bilan aytganda ijtimoiy davlat bu - eng avvalo, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag'allikni qisqartirish, demakdir<sup>44</sup>.

Shuningdek, Konstitutsiyada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi kambag'allikni qisqartirish, aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish bo'yicha choralar ko'rishi belgilab qo'yildi<sup>45</sup>.

<sup>42</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 43-modda

<sup>43</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1-modda

<sup>44</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasidan. <https://president.uz/oz/lists/view/5774>

<sup>45</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 43-modda

Mamlakatimizda barcha sohalarda bo‘lgani kabi kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishida ham yaqin kelajak uchun ulkan rejalar qo‘yilgan. Misol uchun, “O‘zbekiston-2030” strategiyasida respublikamiz hududida 2026-yilga qadar kambag‘allikni 2022-yilga nisbatan 2 barobarga, 2030-yilgacha esa keskin qisqartirish, kambag‘allikka tushish xavfi mavjud 4,5 million aholi daromadini oshirish, ijtimoiy sheriklik asosida 500 ming malakali mutaxassis tayyorlash, 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish, yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish kabi nihoyatda muhim marralarga erishish maqsad qilib olindi.<sup>46</sup>

Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha yuqorida keltirib o‘tilgan ulkan maqsadlarga erishish yo‘lida olib borilgan hamda rejalashtirilgan chora-tadbirlarning samarasi quyidagi bo‘limlarda batafsil tahlil qilib chiqiladi.

## II. ADABIYOTLAR TAHLILI

Yurtimizda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarga hissa qo‘shish maqsadida bir qancha mahalliy olimlarimiz tomonidan mavzu yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Xususan, iqtisodchi olimlardan Q.Abdurahmonov<sup>47</sup>, A.Vaxabov<sup>48</sup>, R.Djumanova<sup>49</sup>, R.Xasanov<sup>50</sup>, B.G‘oyibnazarovning<sup>51</sup> ilmiy ishlarida kambag‘allik darajasini qisqartirishning aholi bandligiga bog‘liqligi va mehnat bozorining nazariy asoslari, ijtimoiy sohani moliyalashtirish, aholi turmush darajasi, kambag‘allikning kelib chiqish sabablari, kambag‘allik darajasini aniqlash mexanizmlari o‘rganilgan.

Respublikamizda 2017-yildan beri kam ta‘minlangan, kambag‘al, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 20 dan ortiq Prezident farmon va qarorlari, 30 dan ortiq Vazirlar Mahkamasi qarorlari qabul qilindi. Olib borilayotgan islohotlarning natijadorligini tahlil qilish maqsadida Prezident boshchiligida bevosita mavzusi kambag‘allikni qisqartirish bo‘lgan 20 dan ortiq yig‘ilishlar, videosektorlar o‘tkazildi. Shuningdek, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganish, soha ekspertlari o‘rtasida muammoni muhoma qilish maqsadida respublikamizda hukumat darajasida 2 ta xalqaro forum hamda 1 ta “Ko‘p o‘lchovli kambag‘allik bo‘yicha global muloqot” nomli xalqaro konferensiya o‘tkazildi.

<sup>46</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni

<sup>47</sup> Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik, -T.: -Fan nashriyoti, 2019-595 b

<sup>48</sup> Vaxabov A.B. Aholini ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish tizimining manzilliligi kuchaytirish mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. -T.: “Universitet” nashriyoti, 2020. -154b.

<sup>49</sup> Aholi turmush darajasi ko‘rsatkichlari va uni oshirish yo‘llari: Iqtisodiyot fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati –Toshkent, 2008.

<sup>50</sup> Xasanov R.R. Shakllanayotgan bozor munosabatlari tizimida daromadlar va ularning tabaqalanishi //Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –Toshkent, 2005. - 40 b

<sup>51</sup> G‘oyibnazarov B.K. Aholi turmush darajasini statistik baholash. Monografiya. –Toshkent: —Fan nashriyoti, 2005 – 69 b

Qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar hamda kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan barcha harakatlar shaxsan Prezidentimiz nazoratida bo‘lganligi kambag‘allik muammosini yo‘q qilishga mamalakatimizda qanday kirishilganligidan dalolat beradi.

### III. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi mamkatimizda 2017-2025-yillar mobaynida kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha qilingan barcha ishlarni yillar ketma-ketligida bir joyga jamlagan holda ularga umumiy baho berishdan iborat edi. Shu sababli maqolada asosan **induktiv baholash** usulidan keng foydalanildi. Maqolani tayyorlashda Prezident farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti ma‘lumotlaridan foydalanildi.

### IV. TAHLIL VA NATIJALAR

Xo‘sh, kambag‘allikni qanday qisqartirish mumkin? Kambag‘al oilalarga ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam pulini to‘lash orqali muammoni hal etish mumkinmi? Albatta yo‘q. Kambag‘allikni qisqartirish, eng avvalo, aholida boqimandalik kayfiyatini yo‘qotish, ularni kasbga o‘rgatish, moliyaviy savodxonligini oshirish va tadbirkorlik ruhini shakllantirishdir. Bu jarayon insonning ichki salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, infratuzilmani rivojlantirish, sifatli ta‘lim va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, shuningdek, manzilli nafaqa tizimini joriy etish kabi kompleks iqtisodiy va ijtimoiy choralarni o‘z ichiga oladi.


Har qanday mamlakatda aholining kam kambag‘al qatlami mavjudligi ma‘lum. O‘zbekistonda ham, ayniqsa, qishloq hududlarida, aholining ma‘lum bir qismi yetarli daromad manbaiga ega emasligi hech kimga sir emas. Biroq, yurtimizda kambag‘allik masalasi uzoq yillar davomida ochiq muhokama qilinmagan mavzulardan biri bo‘lib kelgan. 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo‘llangan Murojaatnomada davlatimiz rahbari bu masala haqida ochiq gapirib, tarixda ilk bor kambag‘allikni qisqartirishni ustuvor vazifa sifatida belgiladi. O‘sha davrdagi dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, aholining 12-15 foizi yoki 4-5 million kishisi kambag‘allik darajasida edi. Bu esa ularning kunlik daromadi atigi 10-13 ming so‘mni tashkil etganini anglatadi<sup>52</sup>. Shu nuqtada Prezidentimiz muhim bir haqqoniy savolni o‘rtaga tashlagandi: bir oilada avtomobil yoki chorva bo‘lishi mumkin, ammo agar oila a‘zosidan biri og‘ir kasal bo‘lsa va daromadning kamida 70 foizi uning davolanishiga sarflansa, bunday oilani farovon deb atash mumkinmi? Bu savolning zamirida Prezidentimiz yashash minimumining haqiqiy chegarasini barcha ta‘sir etuvchi omillarni inobatga olgan holda aniq hisob-kitoblar asosida hisoblab chiqish zaruriyati borligini nazarda tutgan edi.

Shundan kelib chiqib, Prezidentimiz tomonidan mas‘ullarga birinchi bosqichda har bir mahalla, tuman, shahar va viloyat darajasidagi haqiqiy sharoit va kambag‘allikka oid real ahvolni tahlil qilish kerakligi, ya‘ni mahallalardagi daromadi kam oilalar soni haqida ma‘lumot yig‘gan holda 2020-yil 1-oktabrgacha tirikchilik

<sup>52</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasidan. <https://president.uz/oz/lists/view/5774>

uchun zarur eng kam miqdor va minimal iste'mol savatchasining huquqiy asoslarini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Shundan boshlab kambag'al fuqarolarga bo'lgan e'tibor kuchayib, bunday toifadagi qatlamga turli xil yo'nalishlarda ustunlik yoki imtiyozlar berish jarayoni avj oldi hamda kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining asosiy maqsadlaridan biriga aylandi. Quyidagi diagramma orqali shu kunga qadar kambag'al fuqarolarga berilayotgan barcha imkoniyatlarni bir joyga jamlashga harakat qilib ko'rdik (1-rasmga qarang).



**1-rasm. O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha kambag'al fuqarolarga berilayotgan imkoniyatlar<sup>53</sup>**

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ehtiyojmand oilalar bilan manzilli ishlash bunday toifadagi aholining muammolarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yurtimizda aholi bilan bunday manzilli ishlash tizimining rivojlantirish maqsadida

<sup>53</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3182-son qaroriga asosan “sektor” tizimi joriy qilindi. Unga ko‘ra har bir tuman va shahar hududi to‘rtta sektorga ajratilib, ularga mos ravishda tuman (shahar) hokimi, prokurori, ichki ichlar bo‘limi boshlig‘i, soliq inspeksiyasi boshliqlari rahbar bo‘lishi belgilab qo‘yildi. Sektor rahbarlariga **asosiy lavozim majburiyatidan tashqari** o‘z sektorlari hududida hokimiyat idoralari bajaradigan vazifalar, xususan, obodonlashtirish, uy-joy kommunal tizimi muammolarini hal etish, uyma-uy yurish va aholi bilan uchrashuvlar asosida eng quyi bo‘g‘inda – mahallada dolzarb muammolarni aniqlash, ularni bevosita joyida bartaraf etish yuzasidan aniq choralar ko‘rish, tuman (shahar)ni rivojlantirish bo‘yicha dasturlarga kiritish uchun takliflar tayyorlash va bir qancha shunga o‘xshash vazifalar yuklatildi.

2018-yildan boshlab banklarni mahallalarga biriktirgan holda, “Har bir oila tadbirkor” dasturi bo‘yicha imtiyozli foiz stavkalarida kreditlar berish boshlandi.

2020-yilda boshlangan koronavirus pandemiyasi davrida butun dunyoda bo‘lgani kabi yurtimizda ham sinovli kunlar boshdan kechirildi va aynan shu davrda haqiqatda yordam muhtoj, kambag‘al oilalarni qo‘llab-quvvatlash uchun “temir daftar” joriy etildi hamda sektor rahbarlari tomonidan uyma-uy yurgan holda ro‘yxatga olish tizimi boshlandi. Davlatimiz rahbari videosektor yig‘ilishlaridan birida asosiy maqsad bu sinovli davrda raqamlar ortidan quvib emas, balki xalqni rozi qilish uchun chin ko‘ngildan ishlagan holda kambag‘al oilaning hech bo‘lmaganda bitta a’zosini ish bilan ta’minlab, ularni muhtojlikdan chiqarish ekani, shuning uchun har bir oila, har bir fuqaroning muammosi bilan alohida shug‘ullanish zarurligini ta’kidlagan edi<sup>54</sup>. Shunga muvofiq temir daftarga quyidagi toifadagi oilalar kiritildi:

✓ oilaning mehnatga layoqatsiz nogironlari va surunkali kasallikka chalinganlar;

✓ yakka-yalg‘iz keksalar, bevalar va o‘zgalar qaramog‘iga muhtojlar;

✓ 5 va undan ortiq farzandi bor oilalar;

✓ karantin choralari natijasida daromad manbasini yo‘qotganlar;

✓ haqiqatda ehtiyojmandlar, nochor va moddiy ko‘makka muhtojlar.

Pandemiya davrida “temir daftar”ning samaradorligi sababli, bir necha oylardan so‘ng unga qo‘shimcha ravishda “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” ham tashkil etildi. Bu yangi ro‘yxatlar jamiyatda ijtimoiy, huquqiy va psixologik yordamga muhtoj, shuningdek, bilim va kasb o‘rganishga qiziquvchi ishsiz yoshlar va xotin-qizlarni o‘z ichiga olgan. Ushbu tashabbus orqali ular bilan maqsadli ravishda ishlash yo‘lga qo‘yilgan.

2021-yil 27-avgustda Vazirlar Mahkamasining “Minimal iste‘mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibini amaliyotga joriy etish to‘g‘risida”gi 544-son qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq “kambag‘allik”, “kambag‘allik chegarasi” kabi tushunchalarga birinchi marta huquqiy ta’riflar keltirildi. Xususan:

<sup>54</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020-yil 3-iyunda kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha videosektor yig‘ilishidan. <https://president.uz/oz/lists/view/3624>



kambag‘allik - aholi iqtisodiy imkoniyatlarining hayot kechirish uchun zarur minimal ehtiyojlarini qondirishiga yetarli darajada bo‘lmasligi;

kambag‘allik chegarasi - aholining real xarajatlari tarkibidan kelib chiqib hisoblanadigan bir kishi uchun minimal iste‘mol xarajatlari qiymati;

minimal iste‘mol xarajatlari - uy xo‘jaliklarining real iste‘mol qiymatlari va tarkibini o‘rganish asosida ularning sog‘lom hayot kechirishlari uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlar hamda xizmatlar uchun minimal xarajatlarning hisoblangan qiymati deya ta‘riflar berildi.

2021-yil 1-sentabrdan boshlab 14 yoshgacha bolalari bo‘lgan oilalarga nafaqa hamda bola 2 yoshga to‘lguniga qadar uni parvarish qilish nafaqasi o‘rniga **kam ta‘minlangan oilalarga bolalar nafaqasi** joriy etildi<sup>55</sup>.

2022-yil 1-yanvardan boshlab esa, “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali oilani kam ta‘minlangan deb e‘tirof etish jarayonida qo‘llaniladigan va jon boshiga to‘g‘ri keladigan bir oylik daromad mezoni minimal iste‘mol xarajatlariga tenglashtirildi hamda minimal iste‘mol xarajatlari ko‘rsatkichidan **kambag‘allik chegarasi sifatida foydalanish tartibi yo‘lga qo‘yildi**.

2022-yil 1-yanvardan boshlab butun respublika bo‘ylab barcha mahallalarda tuman (shahar) hokimining “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchisi” lavozimi joriy etildi. Ushbu lavozimga iqtisodiy va investitsiya komplekslariga kiruvchi barcha respublika idoralari, ularning hududiy bo‘linmalarida bo‘lim boshlig‘idan past bo‘lmagan lavozimda ishlovchi rahbar xodimlar, shuningdek, mahalliy hokimliklarning rahbar xodimlari tayinlandi. Prezident ularni mahalladagi “Prezident vakillari” deb nomlab, hududiy rahbarlarni ularni ishiga halaqit bermasligi, yig‘ilishlarga jalb qilmasligini qat‘iy belgilab qo‘ydi. Hokim yordamchilarining moddiy ta‘minotini yaxshilash maqsadida ularga avvalgi ish joyidagidan kam bo‘lmagan miqdorda oylik maosh berilishi, ish samaradorligiga ko‘ra qo‘shimcha rag‘batlantirilishi belgilandi. Yangi tizimning to‘g‘ri ishlashini ta‘minlash hamda hokim yordamchilariga bevosita ko‘mak berish maqsadida har bir tuman shaharga respublika vazirlik va idoralari hamda tijorat banklaridan 1-3 tadan respublika vakillari bir yil muddatga doimiy ravishda asosiy ishidan ajralgan holda xizmat safariga yuborildi.

Hokim yordamchilariga qo‘liga katta miqdorda moliyaviy resurslar (imtiyozli kreditlar, subsidiyalar) berildi.

Shuningdek, hokim yordamchilari tavsiyasi asosida paxta va g‘alladan bo‘shaydigan jami 80 ming gektar maydonini ijara asosida 10 sotixdan 1 gektargacha kambag‘al oilalarga berish tartibi yo‘lga qo‘yildi.

Ishlash imkoniyati va xohishi bor bo‘lgan, lekin sharoitlari og‘ir oilalarga o‘qitish va o‘z bizneslarini boshlashlari uchun imtiyozli kredit, subsidiya berish yoki dehqon xo‘jaligi uchun yer maydonlari ajratish kambag‘allikni kamaytirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoldi. Natijada, 2022-yil davomida kambag‘allik darajasi

<sup>55</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-avgustdagi “Kam ta‘minlangan oilalarga moddiy yordam ko‘rsatish hamda kambag‘allik bilan kurashish ko‘lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6277-son Farmoni

17 foizdan 14 foizga tushdi va 1 million aholi kasb-hunarga o‘qitilib, ish boshlashiga ko‘maklashildi, bu esa ularni kambag‘allikdan chiqarishga yordam berdi<sup>56</sup>.

Kambag‘allikni qisqartirish Xitoy tajribasi asosida olib borildi. Xitoy kambag‘allik ustidan to‘liq g‘alaba qozonganligini e‘lon qilgan birinchi mamlakat hisoblanadi.

2023-yildan boshlab, ushbu tajribani o‘rganish va yangi yondashuvlarni ishlab chiqish maqsadida mamlakatimiz delegatsiyasi bir necha marta Xitoyga xizmat safariga yuborildi. Xitoy tajribasidan kelib chiqqan holda, har bir viloyatda bittadan tumanda kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha alohida dastur amalga oshirilishi belgilandi. Shuningdek, Xitoylik amaliyotchi olimlar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligida maslahatchi sifatida faoliyat yuritishni boshladilar.

2023-yildan boshlab kambag‘allikni qisqartirishga **soliq siyosati orqali ta’sir etish mexanizmlari ishlab chiqildi**. Jumladan hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, davlat ko‘magini berish tartibini takomillashtirish maqsadida respublika tuman va shaharlarini 5 ta toifaga ajratildi. 4-5-toifadagi tumanlarda ro‘yxatdan o‘tgan va shu hududlarda faoliyat yuritadigan tadbirkorlik subyektlariga foyda solig‘i, aylanmadan olinadigan soliq, ijtimoiy soliq, yer va mol-mulk soliqlari, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy belgilangan soliq bo‘yicha ko‘plab tabaqlashgan soliq imtiyozlari taqdim etildi.

Bundan tashqari, 2023-yil 1-maydan boshlab «Ijtimoiy himoya yagona reestri»ga kiritilgan jismoniy shaxslar ayrim ijtimoiy tovarlarni chakana savdo obyektlarida xaridini amalga oshirganda va ushbu xaridni soliq organlarining maxsus mobil ilovasida xarid chekingning fiskal belgisini (QR-kod) yordamida skanerlash orqali ro‘yxatdan o‘tkazganda, ularning bank kartalariga har oy yakuni bilan xarid summasining 1 foizi miqdoridagi keshbek o‘rniga, 12% QQS summasini qaytarib olishlari mumkinligi belgilandi<sup>57</sup>. Bu ro‘yxatga quyidagi mahsulotlar kiritilgan:

1. Qo‘y go‘shti
2. Parranda go‘shti
3. Mol go‘shti
4. Tuxum
5. O‘simlik yog‘i
6. Un
7. Shakar
8. Dori vositalari
9. Tibbiy xizmatlar

Shu bilan bir qatorda, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha tadbirkorga sharoit yaratib, ular bilan manfaatli hamkorlik qilish ishlari boshlandi. Shu maqsadda 2023-yil

<sup>56</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 25-yanvar kuni kambag‘allikni qisqartirish, aholi bandligini ta’minlash va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidan. <https://president.uz/oz/lists/view/5839>

<sup>57</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-apreldagi “2023-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-113-son qarori.

1-iyundan boshlab “20 ming tadbirkor – 500 ming malakali mutaxassis” dasturi amalga oshirilishi ma’lum qilindi. Unda ishtirok etish ixtiyoriy etib qo’yildi.

Dasturda ishtirok etgan tadbirkorlarga 2025-yil 1-yanvargacha soliqlardan alohida imtiyozlar berildi. Jumladan, agar tadbirkor ishchilarining kamida 20 foizi kambag‘al oila a‘zosi bo‘lib, ular bir yil davomida ish bilan ta‘minlagan bo‘lsa, mol-mulk va yer soliqlaridan imtiyoz berildi. Fuqarolar ishga qabul qilinganda hamda har bir oy uchun ish haqi miqdori mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining bir barobaridan kam bo‘lmagan miqdorda hisoblanganda, oylik ish haqi bo‘yicha to‘langan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i respublika budjetidan ish beruvchiga (har bir ishchi uchun bazaviy hisoblash miqdorining ikki barobaridan oshmagan miqdorda) qaytarib berish hamda ularga ijtimoiy soliq stavkasi 50 foizga kamaytirilgan holda qo‘llash tartibi amaliyotga joriy etildi.

Mazkur dastur doirasida soliq va bojxona ma‘murligida ham yengilliklar nazarda tutilgan edi. Xususan, ushbu tadbirkorlarning faoliyatida soliq tekshiruvlari o‘tkazilmasligi, ularga qo‘shilgan qiymat solig‘i hamda ortiqcha to‘langan soliqlar tekshiruvsiz qaytarib berilishi belgilandi. Barcha soliqlardan qarzdorlikni bir yilgacha kechiktirib to‘lash imkoniyati berildi. Bojxona rasmiylashtiruvda “yashil yo‘lak” tartibi qo‘llash boshlandi.<sup>58</sup>

2023-yilda olib borilgan yuqoridagi sa’y-harakatlar natijasida kambag‘allik darajasi 11 foizga tushdi<sup>59</sup>.

2024-yilda kambag‘allikni qisqartirish siyosati Uychi, Sayxunobod, Zarbdor va G‘ijduvon tajribalari bilan davom ettirildi. Sayxunobod tajribasi aholini o‘z tomorqasidan samarali foydalanishga, Uychi tajribasi esa biznes bilan shug‘ullanish istagidagi aholi bilan hokimlar va banklarning manzilli ishlash tizimiga, Zarbdor tajribasi esa har bir tuman va shaharda kamida 5 tadan “drayver” loyihani shakllantirishga, G‘ijduvon tajribasi esa 1 mingta mahallada vertikal o‘sadigan sanoat binolarini tashkil qilishga asoslangan edi. Umuman, mazkur 4 ta tajriba doirasida 2024-yil davomida 3 million 300 ming aholi doimiy daromadga ega bo‘lgan. Jami rasman band bo‘lganlar ilk bor 10 million 500 ming nafarga yetgan<sup>60</sup>.

Shuningdek, 2024-yil boshidan mahallalarda ijtimoiy xodim lavozimi joriy etildi. Bu turdagi xodimlarga og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan, nogironligi mavjud shaxslar bilan ishlash majburiyati yuklatildi. Shu yil 12-iyul kuni Farg‘ona viloyatida o‘tgan yig‘ilishda davlatimiz rahbari bu borada yangicha yondashuvlar kerakligi, endi kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy himoya bir tizimda bo‘lishini aytgan edi. Kambag‘allikdan chiqarishga qaratilgan barcha ijtimoiy xizmat va

<sup>58</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi “Kambag‘allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-93-son farmoni

<sup>59</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga 2024-yil 14-avgust kuni kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish chora-tadbirlariga oid qilingan taqdimotdan. <https://president.uz/oz/lists/view/7467>

<sup>60</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yil 16-dekabr kuni banklar ishtirokida mahallalarda aholi bandligini ta‘minlash va daromadli qilishga qaratilgan ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videosektor yig‘ilishidan. <https://president.uz/oz/lists/view/7769>



yordamlar “Inson” markazlaridagi ijtimoiy xodimlar tomonidan amalga oshirilishi ta’kidlandi.

Kambag‘allikni qisqartirish masalasiga 2021-yil oxirigacha Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi mas’ul edi. 2022-yildan boshlab vazirlik huzurida Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi tashkil etildi hamda agentlik hokim yordamchilari faoliyatini muvofiqlashtirgan holda kambag‘allikni qisqartirishga mas’ul birinchi raqamli idoraga aylandi. 2023-yilda ma’muriy islohotlar natijasida bandlikni ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha bir necha vazirlik va idoralar birlashtirilib, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tashkil etildi. Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi esa Iqtisodiyot vazirligi tarkibidan yangi vazirlik huzuriga o‘tkazildi. 2025-yildan boshlab esa ushbu agentlik tugatilib, uning vazifalari bevosita Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga o‘tkazildi. Shuningdek, 2025-yildan boshlab 2017-yilda joriy etilgan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sektorlari faoliyati tugatildi.

Prezidentimiz tomonidan 2024-yil 16-dekabr kuni banklar ishtirokida mahallalarda aholi bandligini ta’minlash va daromadli qilishga qaratilgan ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishida 2025-yil bandlikni ta’minlash va kambag‘allikni kamaytirishda eng muhim va hal qiluvchi yil bo‘lishi aytib o‘tildi. 2025-yilda 1,5 million aholini kambag‘allikdan chiqarish, birinchi marta 60 ta tuman va shahar kambag‘allik va ishsizlikdan xoli hududga aylantirish, kelgusi uch yilda esa kambag‘allikni 7 foizga tushirish maqsad qilindi.

2025-yilda “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi ishlab chiqildi. Ijtimoiy himoya milliy agentligi hokimliklar bilan birga har bir mahallani to‘liq xatlovdan o‘tkazib, “kambag‘al oilalar portreti”ni ishlab chiqishi, kambag‘al oila bo‘yicha individual dastur bo‘lishi, iqtisodiy kompleks oilalarni kambag‘allikdan olib chiqish bilan shug‘ullanishi belgilandi.

2025-yilda aholining sifatli ta’lim va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, uy-joy sharoitlarini yaxshilash, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, eng og‘ir hududlarda infratuzilma tarmoqlarini barpo etishni qamrab olgan jami 32 ta yo‘nalishda “ko‘p o‘lchovli” kambag‘allikni qisqartirish dasturini amalga oshirilishi belgilangan. Unga ko‘ra 300 ta og‘ir mahallada umumiy quvvati 107 megavatt bo‘lgan quyosh elektr stansiyalari ishga tushirilishi hamda ularga kambag‘al oilalar a‘zolari kooperatsiya asosida ishga olinishi ustuvor maqsadlardan biriga aylandi.

2025-yil boshidan mahallalarda “mahalla bankirlari” faoliyatini boshladi. Banklar tomonidan 3 milliondan ziyod aholini band qilish rejalashtirildi. Ijtimoiy xizmat va yordam olish uchun 10 dan ortiq hujjatni o‘rnini bosadigan bitta – “ijtimoiy karta” joriy etildi. U bilan bilan jamoat transportida bepul yurish, elektr, gaz va o‘qish xarajatiga kompensatsiya olish imkoniyati paydo bo‘ldi. Nafaqa va yordam pullari ham shu kartaga tushadigan bo‘ldi.

Iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti sovrindori Abxijit Banerji “O‘zbekistondagi mahalla tizimi har bir muhtoj oilani kambag‘allikdan olib chiqish

bo'yicha o'zining noyob retseptiga ega<sup>61</sup>”, deb ta'kidlab, yurtimizdagi islohotlarga yuqori baho berdi.

2025-yilda kambag'allik ko'rsatkichni 9 foizgacha, 2030-yilga qadar esa 2 barobar pasaytirishni maqsad qilingan.

## V. XULOSA VA TAKLIFLAR

Biz yuqorida mamlakatimizda o'tgan yillar mobaynida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarni yillar kesimida to'liq ko'rsatishga harakat qildik. Umuman olganda so'nggi yillarda bu yo'nalishda ulkan islohotlar amalga oshirildi deb bema'lol aytishimiz mumkin.

Dastlab sektor tizimi, so'nggra mahallabay ishlash tizimi orqali rahbarlarning respublikadan mahallalarga tushib, uyma-uy yurgan holda aholi muammolarini hal etishga barcha tashkilotlar jalb qilindi. Mahallada kambag'allikni qisqartirish, tadbirkorlik loyihalariga 35 trillion so'm arzon kredit, 7 trillion so'm subsidiya berildi. Mahallalarni obod qilish, bog'cha, maktab, tibbiyot, yo'l, suv va elektr infratuzilmasi uchun 120 trillion so'm ajratildi. Shuningdek, 260 ming gektar yer 800 ming aholiga dehqonchilik qilib, daromad topishi uchun tarqatildi.<sup>62</sup> Minimal iste'mol xarajatlarining huquqiy asosi yaratilib, ilk bor kambag'allik chegarasi e'lon qilindi (2025-yil holatiga kambag'allik chegarasi 669 ming so'mni tashkil etadi). Mamlakatimiz tarixida pensiya va ijtimoiy nafaqalar miqdorini minimal iste'mol xarajatlaridan kam bo'lmagan darajaga olib chiqildi. Kambag'allik darajasini 23 foizdan 11 foizga tushirishga erishildi.

Masalaga shaxsiy yondashuvimiz bilan qaraydigan bo'lsak, shuni xulosa qilishimiz mumkinki o'tgan yillar davomida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha sa'y harakatlarning aksariyati “qo'l boshqaruvi” mexanizmiga asoslanganligini ko'rishimiz mumkin. Bizning fikrimizcha boshqaruvning bunday mexanizmi uzoq muddatli dasturlar uchun emas, balki qisqa muddatli chora-tadbirlarga mo'ljallangan. Shu sababli ham ushbu yo'nalishda har yili qonunchilikga o'zgarishlar kiritib borildi. Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatiga yuqorida to'xtalib o'tdik. Ushbu agentlik dastlab Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, so'nggra kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bo'ysinuviga o'tkazilgan bo'lsa, joriy yildan boshlab uning faoliyati tugatildi. Boshqaruvning sektor tizimi ham oradan sakkiz yil o'tib bekor qilindi. Bunga sabab sifatida Prezidentimiz tomonidan joriy yil korrupsiyani qisqartirish bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda prokuror, ichki ishlar, soliq inspeksiyalari boshliqlarining sektorni bahona qilib o'z asosiy ishlarida nazoratni susaytirib yuborganligi ko'rsatildi<sup>63</sup>.

<sup>61</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 25-sentabrdagi Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki Boshqaruvchilari kengashining to'qqizinchi yillik yig'ilishidagi nutqidan. <https://president.uz/oz/lists/view/7570>

<sup>62</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yil 11-sentyabr kuni kambag'allikni qisqartirish ishlarini keyingi sifat bosqichiga olib chiqish masalalari muhokamasi bo'yicha o'tkazilgan videosektor yig'ilishidan. <https://president.uz/oz/lists/view/7357>

<sup>63</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 5-mart kuni korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig'ilishidagi nutqidan. <https://president.uz/oz/lists/view/7924>

Biz bu fikrlarimiz bilan o‘tgan yillar davomida amalga oshirilgan ishlarga salbiy nuqtai nazar bilan qarashdan mutlaqo yiroqmiz. Pandemiya davrida “temir daftar”ning joriy etilishi bilan sinovli og‘ir kunlarda hukumat yordam berishi kerak bo‘lganlarning manzilli ro‘yxati shakllantirildi. Bu orqali minglab og‘ir ahvolga tushib qolgan, kam daromadli fuqarolarga yordam berildi. Turli darajadagi mansabdor shaxslarning yuqoridan pastga tushib xalq dardini tinglash tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Bizning fikrimizcha kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha yurtimizda yetarlicha tajriba to‘plandi hamda ushbu tajribani kelgusida **tizimli ravishda** amalga oshirilishi tarafdorimiz. Shuningdek, aholini qiynab kelayotgan muammolarni turli darajadagi rahbarlarning sayyor qabullarida ularning bevosita ishtiroki bilan emas, balki tizimli ravishda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi tarafdorimiz. Shu masala yuzasidan shaxsan Prezidentimiz 2022-yildagi Oliy Majlis hamda O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida “qo‘l boshqaruvi”dan aniq natijaga ishlaydigan tizimli boshqaruvga o‘tish vaqti kelganini ta’kidlagan edi. Shuningdek, yana bir yig‘ilishda ko‘plab masalalar tovar va xizmatlarning narx-navo oshib, odamlar norozi bo‘lganidan so‘ng, “qo‘l boshqaruvi” bilan hal bo‘layotgani qayd etgandi<sup>64</sup>.

Kambag‘allik darajasi yurtimizda yildan-yilga kamayib bormoqda. Olib borilayotgan islohotlar natijasida nasib etsa mamlakatimiz kambag‘allikdan holi hududga aylanadi. Shu munosabat bilan kelgusida aholini kambag‘allik chegarasidan pastga tushib qolgandan so‘ng ularni bu toifadan chiqarishga emas, balki ushbu chegaraga kirmasligi uchun oldindan tizimli yondashuvlarni yo‘lga qo‘yishimiz muhim hisoblanadi. Bunda ta’lim sifatini oshirish, qishloq joylarida yerdan unumli foydalanish darajasini oshirish va **eng muhimi fiskal vositalarni qo‘llashimiz zarur.**

Respublikamizda minimal iste‘mol xarajatlari kambag‘allik chegarasiga tenglashtirilgan, bugungi kunda oilalarning jon boshiga daromadi belgilangan chegaradan past bo‘lsa ijtimoiy reestruga kiritilmoqda. Lekin hozirda e‘lon qilinib boriladigan minimal iste‘mol xarajatlari bugungi kundagi real narxlarni ko‘rsatmoqdami? Haqiqatda 669 ming so‘m bir kishi uchun tiriklik chegarasimi? **Shu boisdan fiskal nuqtai nazardan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni muhim deb hisoblaymiz:**

1) birinchi navbatda yashash minimumi hamda iste‘mol savatchasidagi miqdorlarni haqiqiy bozor narxini aniqlash zarur. Rossiya Federatsiyasining qonunchiligida yashash minimumiga “iste‘mol savatchasining qiymatdagi ifodasi, shuningdek majburiy to‘lovlar va yig‘imlar<sup>65</sup>” sifatida ta’rif berilgan. Ushbu ta’rifdan ko‘rinadiki yashash minimumi iste‘mol savati bilan qiymat nuqtai nazaridan bitta narsa emas, balki o‘z ichiga qo‘shimcha ravishda yana insonning to‘lashi lozim bo‘lgan soliqlarni ham oladi. Shu sababdan kambag‘allik chegarasini hisoblashda yashash minimumining pul ekvivalentidagi qiymatini olish kerak;

<sup>64</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yil 16-yanvardagi 2024-yilda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash bo‘yicha ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidan. <https://president.uz/oz/lists/view/6971>

<sup>65</sup> Федеральный закон РФ от 24.10.1997г. №134-ФЗ “О прожиточном минимуме в Российской Федерации/<http://www.consultant.ru>

2) ikkinchidan, soliqqa tortishdagi ijtimoiy adolatni ta'minlash maqsadida kambag'allik chegarasi sifatida aniqlangan miqdor soliqqa tortilmaydigan daromad sifatida qabul qilinib, har qanday fuqaroga, ularning faoliyat turidan qat'iy nazar taqdim etilishi zarur;

4) uchinchidan, soliqqa tortilmaydigan minimum belgilanishi natijasida davlat budjetida yuzaga keladigan yo'qotishlarni o'rnini qoplash maqsadida yashirin iqtisodiyotni qisqartirish orqali soliq bazasini kengaytirish, bunda ish beruvchilar tomonidan soliqdan qochish ilinjida ish haqini sun'iy kamaytirib ko'rsatishni oldini olish uchun ijtimoiy soliq uchun regressiv stavkalar (*qancha ish haqi ko'p hisoblansa past soliq stavkasi, kam hisoblansa yuqori stavka*) joriy etilishi kerak;

3) to'rtinchidan, ko'chmas mulkning qiymatini aniqlash mexanizmiga kiritilayotgan o'zgarishlar<sup>66</sup> natijasida jismoniy shaxslar uchun soliq yuki keskin oshishini inobatga olgan holda jismoniy shaxsning daromadi singari uning ko'chmas mulki uchun ham eng minimal qiymat aniqlanishi zarur hamda mazkur qiymat har qanday fuqaroga mol-mulk solig'idan ijtimoiy chegirma sifatida berilishi zarur;

4) beshinchidan, iqtisodiyotda daromadlarni qayta taqsimlash hamda ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish maqsadida hashamat uchun aksiz soliqlari kiritilishi zarur;

5) oltinchidan, iste'mol narxlarini oshib ketmasligi uchun QQSning ayrim ijtimoiy ahamiyatga ega tovarlar uchun tabaqalashtirilgan soliq stavkalari joriy etilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

## VI. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O'zbekiston - 2030” strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi “Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-93-son farmoni
5. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Minimal iste'mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibini amaliyotga joriy etish to'g'risida”gi 544-son qarori
8. Niyazmetov I.M. Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimi barqarorligini ta'minlash// Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent, 2018. - 275 b
9. Хайдаров, А.,&Азимов, А.(2024). ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКИ В СОЦИАЛЬНОЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ МАХАЛЛЕЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. Экономическое развитие и анализ, 2(10), 268-274. <https://inlibrary.uz/index.php/eitt/article/view/59816>

<sup>66</sup> O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-martdagi “Ko'chmas mulkni ommaviy baholash tizimini joriy etish to'g'risida”gi PF-43-son farmoni

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sahifasi.  
<https://president.uz>